№4
2024



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI | ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMIY - METODIKALÍQ JURNAL

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRLIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ NÓKIS FILIALÍ

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

Ilimiy-metodikalıq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 4/2024

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filialı

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Dilfuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent.*

REDKOLLEGIYA AǴZALARÍ:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Oliy Majlis Senatınıń jaslar, mádeniyat hám sport máseleleri komiteti baslıǵı orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD);

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektorı, docent;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidatı, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidatı, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktorı, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktorı, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktorı;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktorı, professor;

SAYYORA ǴAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA –kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktorı, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktorı, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

ALIMA PIRNIYAZOVA –filologiya ilimleriniń doktorı (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent;

JAŃABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde jılına 2 márte basıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciyalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filialı Turan oypatı 29-jay.
E-mail:ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: https://science.uzdknf.uz/

ISSN-2181-4112

B.TURSUNBOYEVNING FORTEPIANO UCHUN “SAVTI KALON SOQIYNOMASI” MAVZUSIGA VARIATSIYASI TAHLILI VA TALQIN MASALASI

Muxamedjanova Z.
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh kompozitor Behzodbek Tursunboyev ijodining o‘ziga xosligi hamda ijodkorning fortepiano uchun “Savti kalon soqiynomasi” mavzusiga variatsiyasi tahlili va talqini masalalari atroflicha aks etadi. Shuningdek, ijro va talqin masalalari ham maqolada bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: variatsiya, variatsion shakllar, ijrochilik talqini, musiqiy meros, ijro va talqin.

Аннотация: В данной статье подробно раскрывается своеобразие творчества молодого композитора Бехзодбека Турсунбоева, а также вопросы анализа и интерпретации вариации на тему “Savti kalon soqiynomasi” для фортепиано. Также в статье описаны вопросы интерпретации исполнения.

Ключевые слова: вариация, вариационные формы, исполнительская интерпретация, музыкальное наследие.

Abstract: This article comprehensively reflects the uniqueness of the work of the young composer Behzodbek Tursunboyev and the analysis and interpretation of the author's variations on the theme of "Savti Kalon Soqiynomasi" for piano. The article also discusses the issues of performance and interpretation.

Keywords: variation, variation forms, performance interpretation, musical heritage, performance and interpretation.

Kirish. O‘zbekiston kompozitorlik ijodiyotida variatsion shakllar keng qo‘llaniladi. Bir qancha asrlar davomida rivojlanib kelayotgan milliy musiqiy merosga asoslangan bir qancha janrlarda ham variatsiya shakliga xos bo‘lgan elementlarni ko’rish mumkin. Masalan, mavzuning boshqa bir balandlikda o‘zgartirilgan holda qaytarilishi, takrorlangan kuyning o’zgartilgan holda kelishi va uning yana o’z boshlang’ich balandligiga qaytishi ham bunga yaqqol dalil bo‘ladi.

O‘zbekiston kompozitorlari ijodida variatsion shaklning ikkita – an’anaviy va noan’anaviy turiga ajratish mumkin. An’anaviy variatsiyalar asosan tugallangan melodik mavzularga asoslanib, tuzilishi jihatidan bir qator variatsiyalardan iborat bo’ladi. Noan’anaviy variatsiyalar esa, zamonaviy musiqaga xos bo’lgan mavzuiylik turlari, ifodaviy vositalari, rivojlanish tamoyillari, yozuv texnikalarining qo’llanishi bilan ajralib turadi.

Asosiy qism. XX-asrdan boshlab o‘zbek kompozitorlari ham variatsiya uslubida ijod qila boshladilar. Turli-tuman xalq kuylaridan mavzularni tanlab variatsiyalar yozishgan. Xususan, kompozitor Manas Leviyev 2 ta variatsiya, To‘lqin Qurbonov (1969-yil) torli orkestr va litavralar uchun variatsiya, Abdusaid Nabiyev (1971-1987-yillar oralig‘ida) variatsiyalar, Rustam Abdullayev 9 ta variatsiya, Anatoliy Varelas skripka va fortepiano uchun variatsiya, Sobir Karimhoji “Moviy gumbazlar” nomli 8-qismli variatsiyalar (1995-1996-yillar) shular jumlasidandir.

XXI-asrda esa yosh o‘zbek kompozitorlari xalq kuylari, mashhur ijodkorlarning asarlaridan kuy mavzulari va hatto maqom kuylari asosida ham variatsiyalar ijod qilishmoqda. Bularga misol tariqasida fortepiano uchun kompozitor Nurali Erkayevning Paganini mavzusiga variatsiyalar, Behzodbek Tursunboyevning “Soqiynomayi Savti Kalon” mavzusiga variatsiyalar, Jamshed Axrorovning “Muhammasi Nasrulloyi” mavzusiga variatsiyalari shaklan va g’oyaviy puxta ishlangan badiiy barkamol asarlardir.

Yosh kompozitor Behzodbek Tursunboyevning fortepiano uchun “Soqiynomai Savti Kalon” mavzusiga “Variatsiyalar” asarida ijrochi tom ma’noda ijodiy-ijrochilik nuqtayi nazaridan mushohada chorlaydi. Variatsiya mavzusi Rost maqomining ikkinchi guruh sho‘basidan muhtasham “Savti kalon” turkumi tarkibiga kiruvchi “Soqiynomai Savti Kalon” ashula yo‘li[2]ning mavzusi iqtibos sifatida foydalanilgan.

Dastlab mavzu 16 taktdan iborat re eoliy ladida, shakl jihatidan nisbatan murakkab davriyaga o‘xshash, variatsiyalarning umumiy soni 11ta bo‘lib, har bir variatsiya o‘zgacha qiyofada bir-birini takrorlanmas. Mavzuning yana bir asosiy jihati shundakiy, faktura nisbatan gamafon-garmonik, asosiy ovoz va unga jo‘r bo‘luvchi garmonik qatlamdan iborat.

[2] Shu o‘rinda, “Soqiynomai Savti Kalon” Rost maqomining Savtlari tarkibidan o‘rin olgan. “Savt arabcha so’z bo’lib “tovush”, “ohang” va “musiqa tovushi” ma’nolarida keladi. “Soqinoma”- janr, “Savt” - musiqa ohangi, “Kalon” - bastakorga nisbatan aytilgan taxallusdir. Aslida “Kalon” so‘zi fosr-tojikcha “Katta” degan ma’noda ishlatiladi.



Mavzu *cantabile* (kuychan) xarakterda sinkopali ko‘rinishga ega. Modal musiqaning tabiati mavzudan yaqqol tasvirlangan. Pog’onama-pog’ona ohang rivoji xalq musiqa ijodiyoti, bastakorlik ijodiyotiga xos. Mavzuning hajmi geksaxord oralig’ida bo‘lib, asosiy tayanch parda saqlangan holatda namoyon bo‘ladi.

Musiqiy asarni ijrosiga o‘tishdan avval, asar yozuvini tinglash tavsiya etiladi. Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli “Soqiynomai Savti Kalon” ashula yo‘lini mahorat bilan ijro etganligini ta’kidlash joiz. Bu jarayon ijrochini bir muncha dunyoqarashini kengaytirishda, asardagi falsafiy mazmunni teran anglashga yaqindan yordam beradi.

1-variatsiya



Mavzu saqlangan, faktura jihatidan gomofon-garmonikdir, o‘z navbatida faktura uch qatlamga ajraladi. Yuqori ovoz asosiy mavzu, o‘rta ovoz tobe garmoniya tarkibiga kiruvchi ritmik sur’at va quyi ovoz ostinato “re” tayanch tovushiga berilgan. Chap qo‘ldagi garmonik qatlam nafaqat jo‘rlik balki, soqiynoma usulining bir variatsiyasidir.

2-variatsiya



2-variatsiyada kuy yo‘li bir oktava yuqorida berildi. Faktura ko‘rinishi arpedjio va fon ko‘rinishida ega bo’lib, re-eoliy ladiga asoslangan ohangdoshliklar kuy va garmonik qatlamiga o‘ziga xos bo’yoq vazifasini bajaradi. Mavzu saqlangan, faktura jihatidan gamafon-garmonikdir, o‘z navbatida faktura to‘rt qatlamga ajraladi. Soprano ovoz mavzuni ijro etadi, alt ovoz garmonik jo‘rlik vazifasini bajaradi, tenor ovoz yaxlit garmoniyani yoyilgan ko‘rinishidir va bas ovoz alt ovoz kabi garmonik jo‘r vazifasini bajaradi.

3-variatsiya




3-variatsiyada kuy yo‘li berkitilgan, lekin kuy yo’lining ohangi sezilib turadi. Garmonik tuzilma va ritm qatlami saqlanib qolingan. Shu variatsiyadan boshlab mavzuga ijodiy ishlov uslubi bilan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Mazkur variatsiyada applikaturaga ahamiyat qaratish lozim.

4-variatsiya




4-variatsiyada polifonik uslub musiqiy matoda aks etadi. To‘rt ovozlikning qarama-qarshi yurishi zamonaviy kompozitorlik texnikasi sifatida namoyon bo‘ladi. Lad, mavzu yo‘li, ritmik figuratsiya ko‘rinishida tasvirlanadi. Bu yerda geterafon fakturadan foydalanilgan. Faktura to‘rt qatlamga ajralsada asosida ikki qatlam mavjudir. Huddi 3-variatsiyada mavzuning variantidek shu variatsiyada ham keltiriladi. Soprano ovozida mavzuning varianti va uni tenor ovozda ma’lum bir interval oralig’ida uning nusxasi birga ijro etiladi, alt va bas ovozlarda asosiy mavzuga garmonik jo‘rlik qo‘llanilagn.

5-variatsiya



5-variatsiyada kuy yo‘lidan uzoqlashgan holda, arpedjio ko’rinishga ega. 3-variatsiyadan boshlab ko‘rinib turibdiki, kuy qatlamining yuqoriga qarab intilayotganini sezish mumkin. Mavzu yashirin holatda, garmoniya tarkibida keladi va ushbu variatsiya oxirgacha davom etadi.

6-variatsiya



6-variatsiyada ham kuy yo‘li berkitilib, o‘n oltitali nota cho‘zimi triol ko‘rinishda musiqiy partiturada aks etadi. Shuningdek, tempga alohida e’tibor

qaratish lozim. Fakturaning ritmik ko‘rinishi o‘zgargan. Shu tariqa mazkur variatsiyaning 1-bo’limi o’z nihoyasiga yetadi. 6- variatsiyada mavzu ikki ovozda ham nisbatan seziladi, asosan yuqori ovoz yetakchilik qiladi. Bu variatsiyada avjlar ham ko‘rsatiladi va og’ishmaga olib kelib beriladi. Ushbu variatsiyada applikaturaga ahamiyat qaratish zarur.

7-variatsiya



7-variatsiyada asosiy mavzu re-eoliy ladidan si-frigiy ladiga o‘tkazildi. Quvnoq xarakterdagi mavzu endilikda, ma’yus holatdagi mavzu musiqiy qatlamda namoyon bo’ladi. Kuy yo‘liga biroz o’zgartirish kiritilgan. Garmonik qatlamning o‘zgarishi mavzuning xarakterini boshqa qiyofada aks etishiga sabab bo’lgan. Ushbu variatsiyada shuningdek, terminologiyaga ahamiyat qaratish lozim. Meno mosso kamroq harakat bilan, musiqiy mavzuning asosiy g’oyasini ijroda ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Shuningdek, dinamik begilar ***mp*** tarzida, shtrixlarga e’tibor qaratish muhimdir.

8-variatsiya



8-variatsiyada lirik, qayg’uli xarakterdagi musiqiy mavzuda koinotning manzarasi yaqqol tasvirlanadi. Maqom va makon tushunchasi o‘z navbatida ilohiylik, maqom namunalarining yaratilish jarayoni, ijodkorning tassavvuri

doirasida aks etadi. Bu yerda zamonaviy kompozitorlik texnikasi sonoristika uslubining vositalarini sezish mumkin.

9-variatsiya



9-variatsiyada tonallik re-eoliy ladida, 8/8 o‘lchovida, Allegro (Tez) sur’atida namoyon bo‘ladi. Ushbu variatsiya janr jihatidan tokkata janri uslubini eslatadi. Kuy yo‘li yuqori ovozda, garmonik qatlam saqlangan holatda aks etadi. Mavzu saqlangan faqatgina parchalanib keladi. Mavzu o‘ng qo‘lda namoyon bo‘ladi.

10-variatsiya



10-variatsiyada 9-variatsiyaga o‘xshab tokkata janr uslubida rivojlangan bo‘lib, kuy yo‘li yuqori ovozda berilgan. Pastki ovozda tonika organ punkti saqlanib qolinadi. Geterafon fakturadan foydalanilib, misoli 9-variatsiyaning davomi va yakuni sifatida keltiriladi. Ushbu variatsiyada dutor cholg’usiga taqlid effekti yorqin sezilib turadi.

11-variatsiya



So‘nggi variatsiya 6/8 o’lchovida aks etadi. Mazkur variatsiya butun turkumga yakun vazifasini o‘taydi. Variatsiya raqssimon xarakterda bo’lib, ushbu qism maqomlarning yakuniy bo’limlarida uchraydigan *ufor* qismiga monand ravishda yozilgan. 18-taktga kelib, musiqiy matoda koda qismi boshlanib, tantanali xarakterda o‘z nihoyasiga yetadi.

Xulosa. Yosh kompozitor Behzodbek Tursunboyevning “Savti kalon soqiynomasi” mavzulariga 11 ta variatsiyalari ma’lum murakkabliklarga ega. Birinchi navbatda, mavzuni aks ettirishda fortepiano ijrochisidan alohida tayyorgarlik talab etiladi. Ya’nikim, mavzuning ichki dramaturgik holatini teran aks ettirish, metro-ritm, xarakter mezonlarini bir me’yorda ko‘rsatish, ritmik jihatdan aniq, ifodali ijro muhimdir. Har bir variatsiyaning g’oyasini puxta anglash, o‘zlashtirish, fikriy aniqlik ijroga ko‘chishi, ichki hissiy holatlarni namoyon etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. Ishoq Rajabov. “Maqomlar”. T., 2006.
5. Yunus Rajabiy. “Shashmaqom II Rost” T., 1969.
6. Muhammadjonova Z. Fortepianoda chalishni o‘rgatish uslubiyoti. O‘quv qo’llanma. – Toshkent: 2006.
7. Muhammadjonova Z. Fortepiano ansamblini orgatish uslubiyoti. O’quv qo‘llanma. – Toshkent: 2010.
8. Мухамеджанова З. Камерный ансамбль. Учебник для студентов бакалавриата 3-курса обучения по предмету «Камерный ансамбль». Ташкент:.2024 г.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1 **Раджабова С.Р.** СОВРЕМЕННОЕ ВОКАЛЬНОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ: СОЕДИНЕНИЕ ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ В АЦИОНАЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ…….. 3

2 **Туйчиева Р.Х.** СОНАТА ДЛЯ СКРИПКИ И ФОРТЕПИАНО ФАТТАХА НАЗАРОВА В КЛАССЕ КАМЕРНОГО АНСАМБЛЯ….. 12

3 **Muxamedjanova Z.** YOSH KOMPOZITORLAR IJODIDA KAMER-CHOLG‘U ASARLARNING IJROCHILIK TALQINI……..... 17

4 **Ражабова Н.Ф.** ЛАДЫ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ В КУРСЕ СОЛЬФЕДЖИО…….. 26

5 **Saidxonov A.S.** IOGAN SEBASTYAN BAX OHANGLARDAN TARALAYOTGAN HAYOT…… 31

6 **Muxamedjanova Z.** B.TURSUNBOYEVNING FORTEPIANO UCHUN “SAVTI KALON SOQIYNOMASI” MAVZUSIGA VARIATSIYASI TAHLILI VA TALQIN MASALASI…….. 36

7 **Чаршемов Ж.А.** ОРКЕСТР УЧУН КОНЦЕРТ ЖАНРИ ТАРИХИ….. 44

8 **Kamalova G.M.** JAMIL CHARSHEMOVTÍŃ “POPURRI” SHÍǴARMASÍNÍŃ ÓZGESHELIGI…….. 52

9 **Allaniyazov B.Q.** «MUXAMMES» JANRÍNÍŃ TEORIYALÍQ HÁM ÁMELIY MASHQALALARÍ…… 58

10 **Мухамедзиянов К.Т.** О ВОКАЛЬНОМ ЦИКЛЕ «РУБАЯТ» НОДИРА МАХАРОВА НА СЛОВА АЛИШЕРА НАВОИ……. 64

KÓRKEM ÓNER

11 **Allanbaev R.O.** MUZÍKALÍ SHIǴARMALARDIŃ QARAQALPAQ TEATRÍNDA TUTQAN ORNÍ..... 69

12 **Djumaniyazov U.M.** XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRIDA RUBOB PRIMANING O‘RNI…… 76

13 **Áliev N.Ǵ.** QARAQALPAQ MUZIKA MÁDENIYATINDA DEMLI ÁSBAPLAR…… 81

14 **Kamalova G., Dauletbaeva G.** DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIŃ ÁHMIYETI..... 89

15 **Karimova N.** O‘ZBEKISTONDA O‘TKAZILAYOTGAN XALQARO TIVALLARNING MADANIY ALOQALARDAGI ROLI (Xalqaro asal vali misolida)……..... 95

16 **Ризаев О.** ТЕАТР ВА ЗАМОН……. 105

17 **Shukurov A.** MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA MILLIY MADANIYATNING AHAMIYATI…… 111

18 **Хожаназаров Т.** ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ОПЕРА САНЪАТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ…… 117
19 **Мамадалиев А.** ЎЗБЕК МАДАНИЙ МУСИҚА ИЖРОЧИЛИГИДА ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИ АНСАМБЛЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ (чангчилар ансамблида Ф.Содиқовнинг “Ҳумор” асари мисолида).. 122
20 **Назаров О.** МИЛЛИЙ ЧОЛҒУЛАРДА ЎҚИТИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МУТАХАССИСЛИК ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ (Абдувоҳид Мажидов фаолияти мисолида)…… 129
21 **Юлдашева М.Б.** РОЛЬ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ И КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В ПРОДВИЖЕНИИ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА…… 135

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

22 **Gulmanov I.Sh.** DÁP ÁSBABÍN OQÍTÍW METODIKASÍ TARIYXÍ.. 143
23 **Iseev R.** FORTEPIANO SABAǴINDA SES GOZALLÍǴÍ ÚSTINDE ISLEW PROCESI..... 154
24 **Yusupaliyeva D.K.** YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDA MILLIY QADRIYAT: MOHIYAT VA MAZMUN.... 160
25 **Азимов Б.** ИЛМ ВА ТАЖРИБАДАГИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ (Васильев Феоктист Никифорович ижоди мисолида)…… 168
26 **Казакбаева М.** РОЛЬ И РАЗВИТИИ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ…… 175
27 **Умарова В.** РАБОТА НАД ПОЛИФОНИЧЕСКИМИ ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ В КЛАССЕ «СПЕЦИАЛЬНОЕ ФОРТЕПИАНО»……. 180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28 **Тлеуниязова Г.Б.** ЗАМОНАВИЙ ҚОРАҚАЛПОҚ ЛИРИКАСИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ТАМОЙИЛЛАРИДА ШЕЪР КОМПОЗИЦИЯСИ..... 186
29 **Бекбергенова А.У.** ПИСЬМЕННЫЙ ПАМЯТНИК «КИТАБИ ДЕДЕМ КОРКУТ» И ДАСТАН «ЕР ЗИЙУАР»..... 196
30 **Бекбергенова А.У.** ҚАРАҚАЛПАҚ ОЧЕРКЛЕРИНИҢ РАЎАЖЛАНЫЎ ТЕНДЕНЦИЯЛАРЫ (1991-2000-жыллар)……. 202

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

Ilimiy-metodikalıq jurnal

“STATION X” baspası
Nókis-2024